

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**UMAROV FAYOZIDDIN ABDULFATTO O‘G‘LI**

**NORIN DARYOSI BALIQLARI (ACTINOPTERYGII: TELEOSTEI)  
FAUNASI, MORFOEKOLOGIYASI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation**

**Umarov Fayoziddin Abdulfatto o‘g‘li**

Norin daryosi baliqlari (Actinopterygii: Teleostei) faunasi,  
morfoekologiyasi ..... 3

**Умаров Фаёзиддин Абдулфатто угли**

Фауна и морфоэкология рыб (Actinopterygii: Teleostei) река Нарын.. 21

**Umarov Fayoziddin Abdulfatto ugli**

Fauna and morphoecology of fishes (Actinopterygii: Teleostei) of the  
Norin River ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**UMAROV FAYOZIDDIN ABDULFATTO O‘G‘LI**

**NORIN DARYOSI BALIQLARI (ACTINOPTERYGII: TELEOSTEI)  
FAUNASI, MORFOEKOLOGIYASI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/B1556 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nazarov Muxammadrasul Sharapovich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xusanov Alijon Karimovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Atamuratova Muhayyo Shavkatovna**  
b.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu\_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№632-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 5-dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 5-dekabrda 34-raqamli reyestr bayonnomasi)



**I.I. Zokirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**B.M. Sheraliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

**A.K. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida antropogen omilning atrof-muhitga nisbatan global ta'siri hech qachon so'nggi 80-100 yildagichalik bo'lmagan. Buning salbiy natijasi o'laroq Yer yuzidagi mavjud bioxilma-xillikning yildan-yilga kamayib borish xavfi ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Dunyo hamjamiyati mana shu xavfni oldini olish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan 1992 yil Rio-de-Janeyroda (Braziliya) BMT konferensiyasi doirasida dunyo peshqadamlarining atrof-muhit va uni rivojlantirish bo'yicha eng yirik sammiti bo'lib o'tdi hamda uning bosh maqsadi Yer yuzidagi mavjud biologik xilma-xillikni saqlab qolish sifatida belgilandi. Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha bu kabi qonuniy asoslar yaratishga qo'yilgan qadamlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda gidroekosistemalardagi baliqlar xilma-xilligini saqlab qolish asnosida turlarni faunistik tahlil qilish, ularni tabiiy hududlar bo'ylab tarqalishi, har bir mintaqaning o'ziga xos ekologik xususiyatlaridan kelib chiqib turlarning morfoekologik xususiyatlaridagi o'zgaruvchanlik sabablarini baholash hamda noyob va yo'q bo'lib ketish arafasidagi turlarni saqlab qolishga oid ilmiy-tadqiqot ishlar ko'lami kengayib bormoqda. Ayniqsa, har bir mintaqaning o'ziga xosligi u yerdagi suv havzalarida tarqalgan baliqlarning bir qator biologik hamda morfologik moslanishlarini qiyosiy jihatdan tahlil etishni shart qilib qo'yimoqda. Mintaqamiz suv havzalarining ochiq dengizlarga tutashmaganligi tufayli undagi baliqlar xilma-xilligi boshqa mintaqalarga nisbatan turlar soni jihatdan past darajadagi ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu jihatdan mavjud hayvonot dunyosining xilma-xilligini saqlab qolish, gidroekotizimlar turg'unligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqot ishlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz turli tipdagi suv havzalarida tarqalgan baliqlar faunasini kompleks tarzda tadqiq etilish ko'lami so'nggi o'n yilliklarda yanada kengayib bormoqda. Xususan, respublikamiz faunasi xilma-xilligini asrab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda, biologik xilma-xillikni aniqlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va izlanishlar qo'llab-quvvatlanmoqda. Aynan 2019-2028 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida "mavjud biologik xilma-xillikni asrab qolish va undan samarali foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekotizimlarning inqirozga uchrash darajalarini pasaytirish, kamyob va yo'qolib ketayotgan fauna va florani qayta tiklash" vazifalari belgilangan. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, Sirdaryo yuqori oqimi havzasi ixtiofauna tarkibini, xususan uning eng yirik irmog'i hisoblangan Norin daryosi baliqlarining zamonaviy tur tarkibini aniqlash, ularni havza bo'ylab tarqalish darajalarini aniqlash, baliq turlarini morfobiologik ko'rsatkichlarini tadqiq etish, havza ixtiofaunasi bioxilma-xilligiga inson omilining ko'rsatayotgan ta'siri hamda uning salbiy oqibatlarini ko'rsatib berish ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi

PF-4947-son Farmoni<sup>1</sup> va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” 1995-yil 6-maydagi 82-I-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob‘ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son va “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”<sup>2</sup> 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tabiiy suv havzalarida uchraydigan baliqlar tur tarkibini aniqlash, ularni sistematik jihatdan guruhlash, morfologik va biologik xususiyatlarini tadqiq etish masalalari dunyo miqyosida ko‘plab ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada turli davrlarda jahonning yetakchi olimlari tomonidan muhim ilmiy ishlar olib borilgan. Masalan Richard Winterbottom (1974) Sven O. Kullander (1986), Gerald R. Allen (1991), Roberts, T.R. (1998), Peter B. Moyle (2004), Y.M. Kottelat (2006, 2012), J.A. Freyhof va boshqalar (2019, 2021) kabi olimlar baliqlar turlarining morfologik belgilarini tasniflash, ularning tarqalish hududlarini aniqlash va biologik xususiyatlarini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlari hududidagi suv havzalarining ixtiofaunasi tarkibini tahlil qilish, baliq turlarining morfologik, biologik va ekologik xususiyatlarini yoritishda L.S. Berg (1905,1948,1949), V.P. Mitrofanov(1986, 1988, 1992), A.N. Svetovidov (1948, 1964),, A.F. Karpevich (1975), E.A. Petrosyan (1990), A.G. Osinov (2004), F. Shakirova (2012), S.A. Reshetnikov (2013), N. Mamilov va boshqalar (2022, 2024), N. Mustafayev (2024) kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston suv havzalari, xususan, Sirdaryo havzasi ixtiofaunasining turlar xilma-xilligi, morfologik va ekologik xususiyatlari, baliqchilikdagi ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar F. A. Turdakov (1952, 1963); G.K. Komilov (1964, 1973), A. Boltaboyev (1971), M. Muxamediyev (1972), T.V. Salixov (1990), B.G. Komilov (1990), M.F. Vundsettel (1994), M.Sh.Nazarov (1995), M.Sh. Atamuratova (2021), B. Sheraliev va Z. Peng (2021), Y. Qayumova (2022), A. Quvvatov (2022), M. Muqimov (2024), D. Komilova (2025) va boshqa olimlar tomonidan o‘tkazilgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini saqlash to‘g‘risida” 484-son Qarori.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati Sirdaryo o'zani hamda uning irmoqlari hisoblanmish Qoradaryo, Isfayramsoy daryolari, havza bo'ylab qurilgan suv omborlari va irrigatsion kanallar bo'yicha olib borilgan. Sirdaryoning eng asosiy irmoqlaridan biri hisoblangan Norin daryosining ixtiofaunasini o'rganishga qaratilgan eng so'nggi tadqiqot ishi 1960-yillarda ixtiolog F.A. Turdakov tomonidan olib borilgan bo'lib, Norin daryosining hozirgi Qirg'iziston hududiga qarashli qismlarida amalga oshirilgan. Norin daryosining O'zbekiston hududidagi qismi ixtiofaunasi borasida kompleks tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Shunga ko'ra, Norin daryosining O'zbekiston hududida tarqalgan baliqlarning tur tarkibi, taksonomik holati, ularning suv havzalari bo'ylab taqsimlanishi, morfobiologik xususiyatlarini tadqiq etish hamda muhofazaga muhtoj turlarni aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu tadqiqot ishi Farg'ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga ko'ra "Farg'ona vodiysi hayvonot va o'simlik olamini muhofaza qilish hamda biologik xilma-xillikni saqlash muammolari" yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Norin daryosining O'zbekiston hududiga to'g'ri keladigan qismida baliqlarining zamonaviy tur tarkibini aniqlash, baliqlarning morfometrik, bioekologik ko'rsatkichlarini ochib berish hamda muhofazaga muhtoj turlarni muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari**

Norin daryosida tarqalgan baliqlar faunasining hozirgi tur tarkibini aniqlash;  
Norin daryosi baliq turlarining morfometrik ko'rsatkichlari tahlilini o'tkazish;

Norin daryosida uchrovchi turlarning bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish;

Norin daryosi baliqlarining tana uzunligi va vazni o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etish asosida turlarning ekologik holatini baholash;

Norin daryosi ixtiofauna vakillarining havza bo'ylab tarqalishiga oid geoaxborot ma'lumotlarini shakllantirish;

Norin daryosida tarqalgan baliq turlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlash hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Norin daryosida tarqalgan baliqlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Norin daryosida tarqalgan baliqlarning tur tarkibi, tarqalishi, morfometrik, meristik hamda bioekologik ko'rsatkichlari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda zoologik, morfologik, faunistik, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Norin daryosining zamonaviy ixtiofauna tarkibi tadqiq etilib, unda baliqlarning 6 turkum, 12 oila, 21 urug'ga mansub 23 turdan iboratligi aniqlangan;

Sirdaryo yuqori oqimi havzasi jumladan Norin daryosida avvalgi tadqiqotlarda qayd etilmay kelgan *Alburnus chalcoides* qayd etilganligi morfobiologik dalillar bilan asoslangan;

Norin daryosi baliqlarining morfometrik ko'rsatkichlari hamda bioekologik o'ziga xos jihatlari, xususan reproduktiv va o'sish xususiyatlari ochib berilgan;

*Rhodeus ocellatus* ning ko'payish biologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlari ya'ni ularni mollyuska chig'anog'iga tuxum qo'yishi, erkak baliqlarning ko'payish uchun o'zaro raqobati ilk bor akvariumda ya'ni model-tajriba sharoitida asoslab berilgan;

Norin daryosidagi 11 ta baliq turining tana uzunligi va og'irligi orasidagi bog'liqlik ko'rsatkichi hisoblangan, hamda ularning 2 turi manfiy allometrik, 1 turi izometrik va 8 turi ijobiy allometrik o'sish ko'rsatkichlariga ega ekanligi aniqlangan;

Norin daryosida uchrovchi 23 baliq turining havza bo'ylab tarqalishiga oid geoaxborot ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan hamda ushbu turlar TMXI mezonlari bo'yicha baholangan;

Norin daryosi baliqlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan biotik va antropogen omillar aniqlangan hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Norin daryosida tarqalgan baliq turlarining geoaxborot ma'lumotlari shakllantirilgan, ularni havzada tarqalishi bo'yicha kadastr ma'lumotlari yaratilgan;

kamyob va yo'q bo'lib ketish xavfi bo'lgan *Cottus spinulosus*, *Glyptosternon oschanini*, *Salmo oxianus* kabi turlarning Norin havzasida tarqalishi hamda mazkur turlar populyatsiyalarining ekologik holatini monitoring qilishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'tkazilgan tadqiqotlarda an'anaviy va zamonaviy usullarning qo'llanilganligi, ishning tahliliy statistik tadqiqot qismida hozirgi an'anaviy uslubdan foydalanilganligi, olib borilgan tadqiqotlarda erishilgan natijalar respublika hamda xalqaro darajadagi ilmiy amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, nufuzli nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tarafidan tasdiqlanganligi va ularni amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Norin daryosi havzasida tarqalgan baliqlar faunasi zamonaviy tur tarkibining aniqlanganligi, taksonomik tahlil qilinganligi, baliq turlarining morfometrik va bioekologik ko'rsatkichlarini o'rganilganligi, baliq turlarining tarqalishi bo'yicha geoaxborot ma'lumotlar shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikamiz suv havzalari baliqlar faunasining biologik xilma-xilligini zamonaviy qiyofasini yaratishda Norin daryosi ixtiofaunasining kadastr yaratilganligi, Norin daryosi havzasida tarqalgan endemik, noyob hamda yo'q bo'lib ketish xavfi mavjud bo'lgan baliq turlarini muhofazaga olish, yashash muhitini saqlab qolish va himoya qilish chora-

tadbirlarini tashkil etishga hamda tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanishni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Norin daryosi baliqlari faunasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Norin daryosi baliqlari faunasi va morfoekologiyasiga doir tadqiqot natijalari asnosida "Baliqchilik" nomli darslik (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 218-548-sonli guvohnoma) nashr qilingan bo'lib, "60840100-Veterinariya meditsinasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining №02/01-01-225-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida 60840100-"Veterinariya meditsinasi" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish imkonini bergan;

"Norin daryosida tarqalgan O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan va endemik baliq turlarning muhofaza qilish chora tadbirlari" bo'yicha tavsiyanoma O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi vazirligining Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 3-fevraldagi 03-03/1-03/3-1038-son ma'lumotnomasi). Natijada Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi boshqarmasi xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan va endemik baliq turlarni aniqlash, ekologlarning kasbiy faoliyatlarida Qizil kitobga kiritilgan va endemik baliqlarning tarqalishini monitoring qilish imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shu jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Sirdaryo havzasi ixtiofaunasining o'rganilishi" deb nomlangan. Ushbu bobning "Sirdaryo yuqori oqimi havzasining gidrografik tavsifi" deb nomlangan birinchi qismida Sirdaryo yuqori oqimi havzasiga mansub tabiiy va sun'iy suv havzalarining gidrografik tavsifi bo'yicha ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Bobning "Sirdaryo havzasi ixtiofaunasining o'rganilishi" deb nomlangan ikkinchi qismida Sirdaryo havzasi ixtiofaunasini tadqiqi bo'yicha 19-asrdan boshlab shu kungacha olib borilgan turli tadqiqotchilarning ishlari va tadqiqot natijalarining tahlili keltirilgan. Xususan L.Berg "Turkiston baliqlari", G.Nikolskiy „Orol dengizi havzasi baliqlari“, F.Turdakov „Qirg'iziston baliqlari" kabi ilmiy asarlarida Sirdaryo havzasi ixtiofaunasi bo'yicha muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan. G.Komilovning 1960-yillarda boshlagan tadqiqot ishlarida esa Sirdaryo havzasining ixtiofauna taksonomiyasi bo'yicha muhim ma'lumotlar batafsil bayon qilingan. Birinchi bobning "Farg'ona vodiysi ixtiofaunasining shakllanishi" deb nomlangan uchinchi qismi Sirdaryo havzasining yuqori oqimiga mansub bo'lgan Farg'ona vodiysi suv havzalari ixtiofaunasining shakllanishiga bag'ishlangan. Hozirga vaqtga kelib Orol havzasi ixtiofaunasining uchdan bir qismidan sal ko'prog'ini turli yo'llar bilan chetdan kirib kelgan baliq turlari tashkil etmoqda.

Dissertatsiyaning "Tadqiqot uslublari va materiallari" deb nomlangan ikkinchi bobida Farg'ona vodiysi hududidan oqib o'tuvchi, Sirdaryoning eng yirik irmog'i hisoblanmish Norin daryosi baliqlar faunasini tadqiq qilish bo'yicha marshrut va statsionar tadqiqotlar o'tkazilgan joylar hamda yig'ilgan materiallar, ularni qayta ishlashda qo'llanilgan uslublar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot materiallari 2021-2025 yillar davomida Norin daryosining jami 24 ta nuqtasidan yig'ilgan namunalar tadqiqot natijalari uchun asos bo'lgan. Namuna ovlashda kataklarining kattaligi 2x2 mm, uzunligi 2-3 metr bo'lgan kichik to'rlardan foydalanildi. Bitta ovlash nuqtasidan bir namuna olish vaqtida bitta turdan ko'pi bilan 10-15 dona namuna olindi. Namunalar morfologik tekshirish maqsadida dastlab 4-10% formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Oradan 2-7 kun o'tgach doimiy saqlash uchun 70% li etil spirtiga solindi.

Baliq turlarini aniqlashda L.S. Berg (1949), F.A. Turdakov (1963), M. Kottelat (2012), A.M. Prokofiev (2017), I. Mirabdullaev va boshqalar (2020), hamda B. Sheraliyev & Z. Peng (2021) adabiyotlarida berilgan ma'lumotlardan foydalanildi. Turlarning taksonomik holati Eschmeyer's Catalog of Fishes asosida berildi.

Baliqlarning morfometrik ko'rsatkichlarini hisoblash Kottelat & Freyhof (2007), Fricke (1984), Kottelat (1984) metodlaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Uzunlik va og'irlik orasidagi munosabat esa Froese (2006), Sparre & Venema (1998) metodikasi asosida hisoblandi. Variatsiya va korrelyatsiya koeffitsiyentlariga oid statistik ma'lumotlar G.F. Lakin (1990), N.A. Ploxinskiy (1970), G.V Chudnovskaya (1998) usullari bo'yicha tahlil etildi. Baliqlarning yillar bo'yicha o'sish tezligini Eynar Lea qo'llagan baliqlar o'sishini teskari hisoblash usuli yordamida aniqlandi. Baliqlarning reproduktiv ko'rsatkichlarini aniqlash umumixtiologik usullar bo'icha amalga oshirildi (I.Pravdin 1966).

Dissertatsiyaning "Norin daryosi baliqlari tur tarkibi va morfometrik xususiyatlari" deb nomlangan uchinchi bobi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, unda Norin daryosida tarqalgan baliqlarning tur tarkibi, ularning maqomi hamda bir qator turlarning morfometrik xususiyatlariga oid ma'lumotlar taqdim etilgan.

Uchinchi bobning birinchi bo'limida Norin daryosi ixtiofaunasining zamonaviy tur tarkibi hamda ularning maqomi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Norin daryosi havzasida baliqlarning 6 turkum, 12 oila, 21 urug'ga mansub 23 turi qayd etilgan. Quyida Norin daryosida qayd etilgan baliq turlarining ro'yxati zamonaviy sistematika va taksonomik nomenklatura asosida keltirilgan.

#### **Turkum I. Salmoniformes Bleeker, 1859 - Olabaliqsimonlar turkumi**

##### **Oila 1. Salmonidae- Olabaliqlar oilasi**

###### **Urug' 1. *Salmo* Linnaeus, 1758**

1. *Salmo oxianus* (Kessler, 1874) Amudaryo foreli

###### **Urug' 2. *Oncorhynchus* Suckley, 1861 yil**

2. *Oncorhynchus mykiss* (Walbaum, 1792) Kamalakrang forel

#### **Turkum II. Cypriniformes Bleeker, 1859 – Karpsimonlar**

##### **Oila 2. Nemacheilidae Regan, 1911 – Daryo yalangbaliqlari**

###### **Urug' 3. *Triplophysa* Rendahl, 1933**

3. *Triplophysa strauchii* (Kessler, 1874) – Dog'li yalangbaliq

4. *Triplophysa labiata* (Kessler, 1974) Qo'ng'ir eshvoyi

##### **Oila 3. Cyprinidae Rafinesque, 1815 – Karplar**

###### **Urug' 4. *Carassius* Jarocki, 1822**

5. *Carassius gibelio* (Bloch, 1782) – Kumush tovonbaliq

###### **Urug' 5. *Cyprinus* Linnaeus, 1758**

6. *Cyprinus carpio* Linnaeus, 1758 – Zog'ora baliq

###### **Urug' 6. *Schizothorax* Heckel, 1838**

7. *Schizothorax eurystomus* Kessler, 1872 – Qorabaliq

##### **Oila 4. Xenocyprididae Günther, 1868 – Sharqiy Osiyo chebak baliqlari**

###### **Urug' 7. *Hemiculter* Bleeker, 1860**

8. *Hemiculter leucisculus* (Basilewsky, 1855) Qirraqorin

###### **Urug' 8. *Hypophthalmichthys* Bleeker, 1860**

9. *Hypophthalmichthys molitrix* (Valenciennes, 1844) – Oq do'ngpeshona

###### **Urug' 9. *Opsariichthys* Bleeker, 1863**

10. *Opsariichthys bidens* (Guntner, 1873)–Uchlab.

##### **Oila 5. Acheilognathidae Bleeker, 1863 – Taxirbaliqlar**

**Urug' 10.** *Rhodeus* Agassiz, 1832

11. *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) – Ko'zli taxirbaliq

**Oila 6. Gobionidae Bleeker, 1861 – Qumbaliqlar**

**Urug' 11.** *Abbottina* Jordan & Fowler, 1903

12. *Abbottina rivularis* (Basilewsky, 1855) – Amur soxta qumbalig'i

**Urug' 12.** *Gobio* Cuvier, 1816

13. *Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872 – Turkiston qumbalig'i

**Urug' 13.** *Pseudorasbora* Bleeker, 1859

14. *Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846) – Amur chebakchasi

**Oila 7. Leuciscidae Howes, 1991 – Oqqayroqlar**

**Urug' 14.** *Alburnus* Rafinesque, 1820

15. *Alburnus chalcoides*, (Güldenstädt 1772) – Moybaliq.

16. *Alburnus taeniatus* Kessler, 1874 – Chizikli tezsuzar

**Urug' 15.** *Leuciscus* Cuvier, 1816

17. *Leuciscus squaliusculus* (Kessler, 1872) – Turkiston oq chebagi

**Urug' 16.** *Rutilus* Rafinesque, 1820

18. *Rutilus lacustris* (Pallas, 1814) – Sibir qizilko'zi

**Turkum III. Siluriformes Cuvier, 1817 – Laqqasimonlar**

**Oila 8. Siluridae Cuvier, 1816 – Laqqalar**

**Urug' 17.** *Silurus* Linnaeus, 1758

19. *Silurus glanis* Linnaeus, 1758 – Laqqa

**Oila 9. Sisoridae Bleeker, 1858 – Tog' laqqachalari**

**Urug' 18.** *Glyptosternon* McClelland, 1842

20. *Glyptosternon oschanini* (Herzenstein, 1889) – Oshanin laqqachasi

**Turkum IV. Gobiiformes Günther, 1880 - Buqabaliqsimonlar**

**Oila 10. Gobiidae Cuvier, 1816 – Asl buqabaliqlar**

**Urug' 19.** *Rhinogobius* Gill, 1859

21. *Rhinogobius cf. lindbergi* Berg, 1933 – Buqabaliq

**Turkum V. Cyprinodontiformes Berg, 1940 – Karptishsimonlar**

**Oila 11. Poeciliidae Bonaparte, 1831 – Gambuziyalar**

**Urug' 20.** *Gambusia* Poey, 1854

22. *Gambusia holbrooki* Girard, 1859 – Holbruk gambuziyasi

**Turkum VI. Perciformes Bleeker, 1863 – Olabug'asimonlar**

**Oila 12. Cottidae Bonaparte, 1831 – Toshbuqabaliqlar**

**Urug' 21.** *Cottus* Linnaeus, 1758

23. *Cottus spinulosus* Kessler, 1872 – Turkiston toshbuqasi.

Norin daryosida qayd qilingan 23 ta baliq turining 2 tasi Salmoniformes, 16 tasi Cypriniformes, 2 tasi Siluriformes turkumlariga mansub bo'lsa, qolgan Cyprinodontiformes, Gobiiformes, Perciformes kabi turkumlarning 1 tadan turi tarqalganligi aniqlandi.

Norin daryosi ixtiofaunasini tashkil etuvchi turlarning 10 tasi (43,4%) mahalliy turlar bo'lib, ularning 5 tasi (21,7%) endemik turlar, 5 tasi (21,7%) iqlimlashtirilgan turlar va 8 tasi (34,9%) invaziv turlar bo'lib, umumiy turlarning 9 tasi (39,1%) ov ahamiyatiga ega ekanligi aniqlandi (1-jadval). *Alburnus chalcoides*, *Carassius gibelio*, *Cyprinus carpio*, *Hypophthalmichthys molitrix*, *Oncorhynchus*

*mykiss, Rutilus lacustris, Salmo oxianus, Schizothorax eurystomus, Silurus glanis* kabi turlar mahalliy ovchilar tarafidan faol ovlanadi.

1-jadval.

**Norin daryosi baliqlarining maqomi.**

№	Maqomi	Mahalliy	Iqlimlashtirilgan	Invaziv	Ov ahamiyatiga ega	Qizil kitobga kiritilgan
	Tur					
1.	<i>Salmo oxianus</i>		+		+	+
2.	<i>Oncorhynchus mykiss</i>		+		+	
3.	<i>Triplophysa strauchii</i>			+		
4.	<i>Triplophysa labiata</i>			+		
5.	<i>Carassius gibelio</i>		+		+	
6.	<i>Cyprinus carpio</i>	+			+	
7.	<i>Schizothorax eurystomus</i>	+			+	
8.	<i>Hemiculter leucisculus</i>			+		
9.	<i>Hypophthalmichthys molitrix</i>		+		+	
10.	<i>Opsariichthys bidens</i>			+		
11.	<i>Rhodeus ocellatus</i>			+		
12.	<i>Abbottina rivularis</i>			+		
13.	<i>Gobio lepidolaemus</i>	+				
14.	<i>Pseudorasbora parva</i>			+		
15.	<i>Alburnus chalcoides</i>	+			+	
16.	<i>Alburnus taeniatus</i>	+				
17.	<i>Leuciscus squaliusculus</i>	+				
18.	<i>Rutilus lacustris</i>	+			+	
19.	<i>Silurus glanis</i>	+			+	
20.	<i>Glyptosternon oschanini</i>	+				+
21.	<i>Rhinogobius cf. lindbergi</i>			+		
22.	<i>Gambusia holbrooki</i>		+			
23.	<i>Cottus spinulosus</i>	+				+

Uchinchi bobning ikkinchi va uchinchi bo'limlarida Norin daryosi baliqlarining faunistik tahlili, morfometrik ko'rsatkichlari hamda ularning tahlili keltirilgan. Masalan *Salmo oxianus* ning morfometrik ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra standart tana uzunligiga nisbatan boshning uzunligi o'rtacha 23,56% ni, predorsal masofa 45,93% ni, postdorsal masofa 43,94% ni, prepelvik masofa 53,11% ni, preanal masofa 71,75% ni, dorsal suzgich balandligi 15,65% ni, dorsal suzgich asosini uzunligi 11,06% ni, anal suzgich asosini uzunligi 7,87% ni tashkil etgan bo'lsa, boshning uzunligiga nisbatan tumshug'ining uzunligi 23,42% ni, postorbital uzunlik 53,77% ni, ko'z diametri 21,27% ni tashkil etdi. Amudaryo foreli bosh uzunligi tana uzunligining deyarli to'rt dan bir qismini, predorsal va postdorsal masofalar tananing salkam yarmini, prepelvik masofa tananing yarmini, preanal masofa esa tananing deyarli to'rt dan uch qismini tashkil etdi (2-jadval).

*Salmo oxianus* ning morfometrik ko'rsatkichlari.

Morfometrik belgilar	<i>Salmo oxianus</i> n=20			
	Min	Max	M±m	R
Umumiy uzunlik (mm)	115,17	250,58	160,04	
Standart uzunlik (mm)	98,68	225,00	140,72±9,57	1,00
SL ning % hisobida				
Bosh uzunligi	22,35	25,18	23,56±2,09	1,00
Tanasining maksimal balandligi	19,56	25,53	22,43±1,99	0,96
Tanasining maksimal eni	9,80	14,55	12,41±1,37	0,97
Predorsal uzunlik	42,20	49,30	45,93±4,75	1,00
Postdorsal uzunlik	41,18	48,31	43,94±4,42	0,99
Prepelvik uzunlik	50,08	58,08	53,11±5,11	0,99
Preanal uzunlik	68,81	74,81	71,75±6,92	1,00
Dorsal suzgich qanot balandligi	11,76	20,19	15,65±1,11	0,87
Dorsal suzgich qanot asosining uzunligi	8,82	13,03	11,06±1,00	0,94
Anal suzgich qanot asosining uzunligi	5,71	10,51	7,87±1,09	0,96
Ko'krak suzgich qanot uzunligi	15,34	21,99	18,13±1,29	0,95
Qorin suzgich qanot uzunligi	10,46	15,19	12,79±1,01	0,94
Dum suzgich qanot uzunligi	9,76	16,66	14,12±0,80	0,86
Ko'krak-qorin suzgich qanotlar masofasi	28,63	34,80	31,82±3,21	1,00
Qorin va anal suzgich qanotlar masofasi	16,81	21,46	18,93±2,00	0,98
Orqa suzgich qanotidan moy suzgich qanotigacha	20,11	24,40	22,39±2,47	0,99
Moy suzgich qanotini asosini uzunligi	2,52	4,95	3,66±0,27	0,85
Moy suzgich qanoti uzunligi	5,22	22,13	8,07±0,09	0,68
Dum bandining uzunligi (CPL)	18,56	21,75	20,56±1,60	0,98
Dum bandining balandligi (CPD)	8,87	10,90	10,14±0,74	0,97
Dum bandining eni	5,43	7,36	6,30±0,66	0,96
SL ning % hisobida				
Bosh balandligi ensa sohasidan	59,57	70,00	65,26±1,32	0,98
Bosh balandligi ko'z sohasidan	37,50	52,98	48,87±0,99	0,97
Maksimal bosh eni	39,29	52,15	46,02±1,12	0,97
Tumshuq uzunligi	18,10	26,71	23,42±0,59	0,97
Ko'z diametri	14,99	28,72	21,27±0,21	0,74
Interorbital masofa	31,58	43,69	37,23±0,87	0,91
Postorbital bosh uzunligi	34,04	64,00	53,77±1,17	0,89
Og'iz eni	7,18	19,22	10,43±0,66	0,97
Burunlararo masofa	3,89	9,73	5,42±0,80	0,93

\**Izoh:* min-eng kichik ko'rsatkich; max-eng katta ko'rsatkich; M-o'rtacha ko'rsatkich (M) va m-o'rta arifmetik qiymat xatosi, r-korrelatsiya koeffitsiyenti.

Norin daryosidan tutilgan uchlab balig'i (*Opsariichthys bidens*) ning tana uzunligi 116-205 (o'rtacha 51,05) mm; tana vazni 5,13-80,71 (o'rtacha 42,94) gr ni tashkil etdi. Uchlabning ko'plab plastik belgilari bilan standart uzunligi o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Boshining uzunligi va standart uzunligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik  $r=0,89$  ga, predorsal uzunlik va standart uzunlik o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik  $r=0,98$  ga teng ekanligi

aniqlandi. Ko'zli taxir baliq (*Rhodeus ocellatus*) ning tana uzunligi 44,01-82,59 (o'rtacha 66,0) mm, tana og'irligi 1,01-7,07 (o'rtacha 4,29) gr ni tashkil etdi. Tana og'irligi va uzunligi o'rtasida korrelyatsiya  $R=0,93$  ga teng bo'ldi.

Ma'lumki Norin daryosi va Qoradaryo Farg'ona vodiysi hududida o'zaro qo'shib Sirdaryoni hosil qiladi. Shundan kelib chiqib ushbu daryolar ixtiofauna tarkibini o'zaro qiyoslash muhim sanaladi. Dissertatsiyaning uchinchi bob to'rtinchi bo'limida aynan Norin daryosi va Qoradaryo baliqlari tur tarkibi hamda ularning morfometrik xususiyatlarini o'zaro qiyosiy tahlili berilgan. Bu daryolar bir-biri bilan o'zaro to'qnashganligi sababli ularning ixtiofauna tarkibida ma'lum o'xshashliklar bo'lishi tabiiydir. Masalan Norin daryosida dissertant tomonidan baliqlarning 23 turi, Qoradaryoda Komilova (2025) tomonidan 28 turi va Sirdaryoning Farg'ona vodiysi hududida Vundsettel tomonidan 25 turi (1994) uchrashi aniqlangan. Norin daryosi uchungina xos bo'lgan turlarga *Salmo oxianus*, *Oncorhynchus mykiss* mansub bo'lsa, faqat Sirdaryo yuqori oqimiga xos bo'lgan turlarga *Scardinius erythrophthalmus*, *Abramis brama*, *Hypophthalmichthys nobilis* va *Sander lucioperca* kabilar mansub bo'ldi. Faqat Qoradaryo uchun xos bo'lgan tur *Micropercops cinctus* ekanligi aniqlandi. Qoradaryo va Sirdaryo uchun *Sabanejewia aralensis*, *Iskandaria kuschakewitschi*, *Ctenopharyngodon idella*, *Luciobarbus capito*, *Pelecus cultratus* kabi turlar umumiy bo'lib, ushbu turlar Norin daryosida uchramaydi. Norin va Qoradaryo uchun *Triplophysa strauchii*, *Triplophysa labiate*, *Alburnus chalcoides*, *Leuciscus squaliusculus*, *Glyptosternon oschanini*, *Cottus spinulosus* kabi turlar umumiy bo'lib, ushbu turlar Sirdaryoning yuqori oqimida qayd qilinmagan. Norin daryosi Qoradaryo bilan o'zaro qo'shib Sirdaryoni hosil qilganligidan kelib chiqib har uchala daryo baliqlar faunasining o'xshashlik darajalari Jakkar koeffitsiyenti orqali aniqlandi. Unga ko'ra Norin daryosi ixtiofaunasi Qoradaryo bilan 70% ga, Sirdaryo bilan 45% ga, Qoradaryo baliqlari Sirdaryo baliqlar faunasi bilan 65% ga o'xshashligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Norin havzasi baliqlarining bioekologik xususiyatlari va muhofaza masalalari" deb nomlangan to'rtinchi bobi to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, unda Norin daryosida tarqalgan baliqlarning bioekologik ko'rsatkichlari va muhofaza masalalariga bag'ishlangan ma'lumotlar keltirilgan. Xususan uning "Baliqlarning reproduktiv xususiyatlari va ko'payish biologiyasi" deb nomlangan birinchi bo'limida Norin daryosida tarqalgan bir qator turlarning ko'payuvchanlik xususiyatlariga oid tadqiqot natijalari berilgan. Masalan invaziv tur bo'lmish ko'zli taxir baliq (*Rhodeus ocellatus*) ning o'ziga xos ko'payish biologiyasi tajriba-model sharoitda ya'ni akvariumda kuzatilgan. Tajriba tariqasida Norin daryosidan tutilgan 4 ta erkak va 2 ta urg'ochi ko'zli taxir baliqni akvariumda 2 yil davomida boqildi. Baliqlar jinsiy jihatdan voyaga yetmaganligi sababli tajribaning birinchi yili ko'payish jarayoni sodir bo'lmadi. Ikkinchi yilga o'tib esa erkak va urg'ochi baliqlar o'rtasida farq paydo bo'ldi. Erkak baliqlar anchagina yiriklashib rang-barang tusga kirdi. Urg'ochi baliqlarning o'lchami va rangi deyarli o'zgarmadi. Kuzatilgan tajribada erkak baliqlar ichida o'sish jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi baliq yetakchilikni qo'lga oldi, ya'ni ushbu baliq mollyuska chig'anog'i yoniga boshqa erkak baliqlarni yaqinlashtirmay qo'ydi. Yetakchi baliq urg'ochilarni chig'anoq yoniga jalb qila boshladi. Urg'ochi ko'zli taxir baliq mollyuska

